

IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIVAVIY REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI

SamISI “Moliya” kafedrası

*assistenti **Berdikulov J.R***

berdikulovjurabek@gmail.com

*SamISI “Moliya va moliyaviy
texnologiya” yo’nalishi talabasi*

NORMURODOVA ZUHRA ORZIMUROD QIZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati ko’rib chiqiladi, uning makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlashdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda to’rt yillik yalpi ichki mahsulotning o’sishi, inflyatsiya, byudjet taqchilligi, davlat qarzi va to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar oqimi kabi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar tahlil qilingan bo’lib, ushbu tahlil orqali moliyaviy barqarorlik dinamikasi va islohotlar natijalari ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: Moliyaviy rejalashtirish; iqtisodiyotni liberallashtirish; makroiqtisodiy barqarorlik; fiskal siyosat; investitsion muhit; davlat qarzi; moliyaviy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение финансового планирования в условиях либерализации экономики Узбекистана, а также его роль в обеспечении макроэкономической стабильности и развития. Кроме того, в исследовании анализируются такие ключевые макроэкономические показатели, как рост валового внутреннего продукта за четыре года, инфляция, дефицит бюджета, государственный долг и приток прямых иностранных инвестиций. Проведённый анализ позволяет отразить динамику финансовой стабильности и результаты проводимых реформ.

Ключевые слова: Финансовое планирование; либерализация экономики; макроэкономическая стабильность; фискальная политика; инвестиционный климат; государственный долг; финансовая эффективность.

Abstract: This article examines the significance of financial planning under the conditions of economic liberalization in Uzbekistan and its role in ensuring macroeconomic stability and development. The study also analyzes key macroeconomic indicators such as four-year GDP growth, inflation, budget deficit, public debt, and inflow of foreign direct investment. Through this analysis, the dynamics of financial stability and the outcomes of ongoing reforms are demonstrated.

Keywords: Financial planning; economic liberalization; macroeconomic stability; fiscal policy; investment climate; public debt; financial efficiency.

Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida moliyaviy rejalashtirish makroiqtisodiy boshqaruvning asosiy tamoyiliga aylandi. Xususan, iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni kechayotgan mamlakatlarda bozor tizimiga davlat aralashuvini kamaytirish va xususiy sektorni rag'batlantirish amalga oshirilmogda. Iqtisodiyotni liberallashtirish ko'pincha o'sish, samaradorlik va raqobatbardoshlik uchun katalizator sifatida qaraladi. Biroq, liberallashtirish iqtisodiyotga o'tish mamlakatlarni yangi xavf-xatarlarga yuz tutushiga olib kelishi ham mumkin. Jumladan, fiskal beqarorlik, tashqi zarbalar va kapitakning notekis taqsimlanishiga ham duchor qiladi. Bunday sharoitda moliyaviy rejalashtirish nafaqat byudjetni to'g'ri taqsimlash vositasi, balki barqaror rivojlanishga erishishni ta'minlashda xizmat qiladi.

Liberallashtirish ko'plab rivojlanayotgan mamlakatdagi iqtisodiyoti zaif fiskal boshqaruv tizimlari va uzoq muddatli fiskal strategiyalarning yo'qligi tufayli sezilarli makro darajadagi muammolarni boshdan kechirmogda. Bunday sharoitda muvofiqlashtirilgan fiskal rejalashtirishsiz liberallashtirish ko'pincha inflyatsiya ortib ketishi muammosiga olib keladi. Qarz yuklarining oshishiga va resurslarning samarasiz taqsimlanishi kabi muammolar ham shular jumlasidandir. Shu sababli, biz olib borgan tadqiqot liberallashtirishning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini yumshatishda fiskal rejalashtirishning ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi esa liberallashtirish islohotlari davrida fiskal rejalashtirish tizimlari va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni baholashdan iborat.

Ushbu tadqiqot ob'ekti liberallashtirish islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlarning iqtisodiy tizimlaridir. Predmeti esa ushbu islohotlar natijalariga ta'sir qiluvchi moliyaviy rejalashtirishning fiskal, institutsional va tartibga soluvchi jihatlari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni uzoq vaqtdan beri bozor samaradorligini oshirish, xususiy sektor rivojlanishiga ko'maklashish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv asosiy omil sifatida qaralib kelgan. Xalqaro OECD nomli statistik tashkiloti tadqiqodchilari tomonidan olib borilgan izlanishlarga asosan, liberallashtirish siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan milliy moliyaviy rejalashtirish mexanizmlarining qay darjada chidamliliga bog'liq ekan. Ular bozor o'zgaruvchanligini va tashqi zarbalarga qarshi bardoshlilikini aniqlashga imkon yaratadi [1]. Strategik, fiskal va pul-kredit siyosatini rejalashtirishsiz amalga oshirish, liberallashtirish jarayonida makroiqtisodiy nomutanosibliklarga olib keladi.

Daromadlar tengsizligiga va moliyaviy beqarorlikka olib kelishi ehtimoli ham mavjud, ayniqsa zaif institutsional tizimga ega bo'lgan davlatlar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida moliyaviy rejalashtirish bozor mustaqilligi va hukumat nazorati o'rtasida muvozanatga ega bo'lishi kerak deyilgan. "Medium-term and Top-down Budgeting in OECD Countries" nomli ilmiy to'plamda qayd etilishicha liberallashtirishni oqilona moliyaviy boshqaruv bilan birlashtirish kapital taqsimlash samaradorligini va uzoq muddatli investitsiya barqarorligini oshiradi deb xulosaga kelingan. Aksincha, zaif moliyaviy nazorat va juda qisqa muddatli rejalashtirish tizimlari bozor tebranishlarining salbiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Bu esa o'sishni cheklaydi va tashqi tahdidlarga dosh bera olmaslik muammosini keltirib chiqaradi [2]. Umumiy qaraydigan bo'lsak, moliyaviy rejalashtirish tizimlari liberallashtirish davlatlar iqtisodiyoti uchun asosiy vositaga aylanib, ularga kutilmagan muammolarni yaratmasdan, foyda olish imkonini berar ekan.

Bundan tashqari, so'nggi siyosiy hujjatlarda liberallashtirish davridagi moliyaviy rejalashtirish qisqa muddatli byudjetlashtirish vositasidan makroiqtisodiy boshqaruvning keng qamrovli strategik vositasiga aylanganligi ko'rsatib o'tilgan. Samarali moliyaviy rejalashtirish endilikda ko'p yillik byudjetni tuzishga asosan aniq prognozlash, taqsimlashni ta'minlash uchun yuqori institutsional shaffoflik va aniqlikni talab qiladi [3]. Liberallashtirish islohotlari va moliyaviy rejalashtirish mexanizmlari o'rtasida yaxshiroq muvofiqlashtirishga erishgan mamlakatlar odatda barqarorlik va o'zgarishsiz o'sish traektoriyalariga erishganlar, bu esa rejalashtirishni amalga oshirmasdan turib, liberallashtirishning o'zi yetarli emasligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda moliyaviy rejalashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish o'rtasidagi bog'liqlikni har tomonlama o'rganish uchun sifat va miqdoriy tahlilni o'zida mujassamlashtirgan aralash metodologik yondashuv qo'llaniladi. Uslubiy asos qiyosiy tahlil, statistik baholash va siyosatni ko'rib chiqishni o'zida birlashtirib, mavzuni ko'p o'lchovli o'rganish imkonini beradi. Miqdoriy ma'lumotlar Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi xalqaro miqyosda tan olingan ma'lumotlar bazalaridan to'planib, asosiy ko'rsatkichlar, jumladan, YaIMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya, byudjet taqchilligi va davlat qarzi nisbatlariga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish davom etayotgani hamda 2017-yildan buyon fiskal va pul-kredit islohotlarining izchil amalga oshirilayotgan davlatlardam biri. Shuni hisobga olgan holda, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida moliyaviy rejalashtirishning rolini baholashda O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlili olib borish kerak. So'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda keng ko'lamli

tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, bu bilan birgalikda davlat moliya sektorini rejalashtirish, o'rta muddatli istiqbolda moliya va shaffoflikni oshirishga e'tibor kuchaytirildi.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda moliyaviy barqarorlik dinamikasini va liberallashtirish natijalarini aks ettiruvchi tanlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval.

O'zbekistonda moliyaviy barqarorlik dinamikasini va liberallashtirish natijalari

Ko'rsatkich	2018	2020	2022	2024	O'zgarish (2018–2024)
YaIM o'sish sur'ati (%)	5.4	1.9	5.7	6.0	+0.6
Inflyatsiya darajasi (%)	14.3	11.1	12.3	8.8	–5.5
Byudjet taqchilligi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foiz)	–2.2	–4.0	–3.5	–2.5	+0.3
Davlat qarzi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan)	19.3	37.5	36.4	33.1	+13.8
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (milliard AQSh dollari)	1.6	2.0	2.7	3.2	+1.6
Valyuta kursi (bir AQSh dollariga o'rtacha so'm)	8,05 0	10,46 0	11,21 0	12,30 0	Amortizatsiya 52%

Manba: Jahon banki, XVF va O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligining mamlakatlar ma'lumotlari asosida tuzilgan [5], [6].

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish ham imkoniyatlar, ham muammolar bilan birga kelgan ekan. Valyuta cheklovlarining bosqichma-bosqich bekor qilinishi, narxlarning erkinlashtirilishi, davlat aktivlarining xususiylashtirilishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirdi va yalpi ichki mahsulot o'sishini rag'batlantirdi. Biroq, bu liberallashtirish dastlab inflyatsiya bosimi va fiskal muvozanatning buzilishiga olib keldi, makroiqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun qat'iy fiskal rejalashtirish choralari talab qildi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga asosan liberallashtirishning effektivlik indeksini hisoblash hamda uni tahlil etish uchun quyidagi formulalar orqali ko'rib chiqamiz:

1. O'zgaruvchanlik koeffitsienti (CV)

$$CV = \frac{\sigma}{\bar{X}} \times 100$$

2-jadval.

O'zgaruvchanlik darajasini

Ko'rsatkich	CV (%)	Izoh
YaIM o'sish sur'ati (%)	40.33	O'sish sur'ati yuqori o'zgaruvchan – iqtisodiy faollik notekis kechgan.
Inflyatsiya darajasi (%)	19.78	O'rtacha barqarorlik – liberallashtirish davrida inflyatsiya pasaygan.
Byudjet taqchilligi (% YaIMga nisbatan)	27.63	O'zgaruvchan – fiskal muvozanat hali to'liq tiklanmagan.
Davlat qarzi (% YaIMga nisbatan)	26.58	O'rtacha o'zgaruvchan – qarz o'sib, keyinchalik pasaygan.
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd \$)	30.04	O'sish kuzatilgan, ammo barqaror emas.
Valyuta kursi (so'm/\$)	17.16	Eng barqaror – bosqichma-bosqich qadrsizlanish.

CV ning natijalariga ko'ra eng barqaror ko'rsatkichlar inflyatsiya va valyuta kursi, eng o'zgaruvchan ko'rsatkichlar esa YaIM o'sish sur'ati hamda FDI oqimi hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy liberallashtirish davrida ayrim sohalarida barqarorlik hali to'liq shakllanmaganidan dalolat beradi.

2. O'rtacha yillik o'sish sur'ati Average Annual Growth Rate (AAGR)

$$AAGR = \frac{(X_{2024} - X_{2018})/X_{2018}}{n} \times 100$$

bu yerda n = yillar soni (2024–2018 = 6 yil)

3-jadval.

Ko'rsatkich	Hisoblash	AAGR (%)	Izoh
YaIM o'sish sur'ati	$((6.0 - 5.4)/5.4)/6 \times 100$	1.85	Iqtisodiy o'sish sekin, ammo barqaror o'sish yo'nalishida.
Inflyatsiya darajasi	$((8.8 - 14.3)/14.3)/6 \times 100$	-6.41	Har yili o'rtacha 6.4% pasayish va narxlar barqarorlashgan.
Davlat qarzi	$((33.1 - 19.3)/19.3)/6 \times 100$	11.87	Har yili o'rtacha 11.9% o'sish, qarz yuki ortgan.
FDI oqimi	$((3.2 - 1.6)/1.6)/6 \times 100$	16.67	Har yili 16.7% o'sish hamda xorijiy investitsiyalar faollashgan.

Valyuta kursi	$((12,300 - 8,050) / 8,050) \times 100$	8.78	Har yili o'rtacha 8.8% qadrsizlanish, boshqariladigan jarayon.
---------------	---	-------------	--

FDI +16.7 foiz investitsion jozibadorlik oshgan; inflyatsiya –6.4 %, narxlar barqarorlashgan; lekin davlat qarzi +11.9 %, fiskal yuk ortgan.

3. Moliyaviy barqarorlik nisbati (FSR)

Bu integral ko'rsatkich bo'lib, moliyaviy barqarorlikni nisbiy tarzda o'lchaydi:

$$FSR = \frac{YaIM_{o'sishi} + Byudjet\ balans_i_{absolyut}}{Inflatsiya + Qarzdorlik_{o'sish\ surati}}$$

Ko'rsatkichlar natijalari:

- $YaIM_{o'sishi} = 6.0 \%$
- $Byudjet\ balans_i = |-2.5| = 2.5 \%$
- $Inflatsiya = 8.8 \%$
- $Qarzdorlik_{o'sish\ surati} = ((33.1 - 19.3) / 19.3) \times 100 = 71.5 \%$

$$FSR = \frac{6.0 + 2.5}{8.8 + 71.5} = \frac{8.5}{80.3} = 0.106$$

Natijada $FSR = 0.106 (< 1)$ hosil bo'ldi. Bu moliyaviy barqarorlik hali to'liq mustahkamlanmaganini bildiradi, chunki iqtisodiy o'sish va byudjet yaxshilanishi qarzi o'sishidan past sur'atda ketayotganidan darak beradi.

4. Yuqorida olib borilgan hisob-kitoblar natijasi orqali liberallashtirishning effektivlik indeksi hisoblab chiqamiz:

$$LEI = \frac{(\Delta YaIM + \% \Delta FDI - \Delta Inflatsiya - \Delta Qarzdorlik)}{4}$$

4-jadval.

Parameter	Formula	Kalkulyatsiya
ΔGDP	$6.0 - 5.4$	$= +0.6$
$\% \Delta FDI$	$((3.2 - 1.6) / 1.6) \times 100$	$= +100\%$
$\Delta Inflation$	$8.8 - 14.3$	$= -5.5$
$\Delta Debt$	$33.1 - 19.3$	$= +13.8$

Yuqoridagi kalkulyatsiya orqali biz liberalizmning effektivlik darajasini aniqlaymiz:

$$LEI = \frac{(0.6 + 100 - (-5.5) - 13.8)}{4} = \frac{92.3}{4} \approx 23.07$$

$LEI = 23.07$ liberallashtirishning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish yalpi ichki mahsulotning o'sishiga,

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishiga va inflyatsiyaning pasayishiga hissa qo'shgan, garchi o'sib borayotgan qarz bu yutuqlarni qisman qoplagan.

Yuqorida olib borilgan hisob-kitob yordamida olingan natijalar umumiy ko'rinishda O'zbekiston iqtisodiyoti 2018–2024-yillarni liberallashtirish davrida bosqichma-bosqich, ammo barqaror transformatsiyadan o'tganini ko'rsatadi. O'sish sur'atlari tahlili yalpi ichki mahsulotning 11,1 foizga mo'tadil, ammo barqaror o'sishini, inflyatsiyaning 38,5 foizga sezilarli darajada pasayishini ko'rsatishi mustahkamlangan pul-kredit siyosati va bozor intizomining o'sishini aks ettiradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ikki baravar ko'paydi, bu esa investorlar ishonchi ortib borayotganidan va biznes muhiti yanada qulaylashganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlat qarzining 71,5 foizga o'sishi fiskal siyosatning bosim ostida qolayotganidan dalolat beradi, bu esa qarzni boshqarishning yanada samarali strategiyalari zarurligini ko'rsatadi. Milliy valyuta kursining 52,7 foizga qadrsizlanishi hukumatning moslashuvchan kurs rejimiga o'tishi raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, ma'lum tashqi zaifliklarni ham yuzaga keltirayotganini yana bir bor ko'rsatadi.

Liberallashtirish samaradorligi indeksining 23,07 qiymati O'zbekistonda bozorni erkinlashtirishning umumiy ta'siri sezilarli darajada ijobiy bo'lganini tasdiqlaydi. YaIM o'sishi, kengaygan investitsiyalar va inflyatsiyaning pasayishi birgalikda qarz darajasining oshishining salbiy ta'siridan ustun turadi. Bu shuni ko'rsatadiki, liberallashtirish makroiqtisodiy barqarorlik, mehnat unumdorligi o'sishi va moliyaviy barqarorlikka samarali hissa qo'shgan. Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, bu taraqqiyotni saqlab qolish uchun, xususan, davlat qarzini boshqarish, valyuta kursining o'zgaruvchanligini nazorat qilish va investitsiya oqimini diversifikatsiya qilishda yanada muvozanatli yondashuv talab etiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot natijalari fiskal rejalashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida fiskal barqarorlikni, barqaror o'sishni va siyosatning izchilligini ta'minlashning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. O'zbekiston tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, liberallashtirishning o'zi aniq fiskal rejalashtirish tizimisiz inflyatsiya bosimi, qarzlarning to'planishi va tarkibiy nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin. Biroq, liberallashtirish keng qamrovli va rejali fiskal siyosat bilan birga olib borilganda, u makroiqtisodiy barqarorlikka yordam beradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va iqtisodiyot diversifikatsiyasini tezlashtiradi. Shunday qilib, liberallashtirishda siyosatining muvaffaqiyati asosan davlatning rivojlanishning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlariga mos keladigan kompleks fiskal rejalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va doimiy monitoring qilish qobiliyatiga bog'liq. Shu ma'noda samarali fiskal rejalashtirish nafaqat fiskal

ehtiyotkorlikni ta'minlabgina qolmay, balki iqtisodiyotni liberallashtirish bilan birga keladigan noaniqlik va bozor tebranishlariga qarshi bufer vazifasini ham bajaradi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida biz quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchisi, liberalizatsiya qilinayotgan mamlakatlar hukumatlari o'rta va uzoq muddatli byudjet maqsadlarini aniq belgilab beruvchi ko'p yillik moliyaviy rejalashtirish asoslarini ishlab chiqishlari va institutsionallashtirishlari kerak. Bunday mexanizmlar davlat moliyasining prognozligini oshiradi va xarajatlar ustuvorligini makroiqtisodiy maqsadlarga moslashtirish orqali fiskal intizomni saqlashga yordam beradi.

Ikkinchisi, samarali fiskal rejalashtirish moliya vazirliklari, markaziy banklar va iqtisodiy rivojlanish agentliklari o'rtasida idoralararo muvofiqlashtirishni talab qiladi. Qarorlar qabul qilish ko'pincha fiskal va pul-kredit siyosatining uyg'unligini buzadi, bu ham investorlar, ham siyosatchilar uchun noaniqlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli, hukumatlarga integratsiyalashgan siyosat qo'mitalari, ma'lumotlar almashinuvi tizimlari va muntazam muvofiqlashtiruvchi yig'ilishlarni tashkil etish orqali fiskal va pul-kredit organlari o'rtasidagi institutsional aloqalarni mustahkamlash tavsiya etiladi

Uchinchisi, liberallashtirishning afzalliklarini to'liq amalga oshirish uchun mamlakatlar moliyaviy rejalashtirishni o'zlarining iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalarini diversifikatsiya qiluvchi strategiyalar bilan to'ldirishlari kerak. Bu innovatsiyalarni rag'batlantirish, kichik va o'rta korxonalarni (KO'B) qo'llab-quvvatlash hamda infratuzilma va yashil investitsiya loyihalarida xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy bazani kengaytirish orqali hukumatlar tovarlar kabi o'zgaruvchan tarmoqlarga qaramlikni kamaytirishi va fiskal rejalashtirish uchun yanada barqaror daromad bazasini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] OECD, *Economic Policy Reforms 2023: Going for Growth*, Paris: OECD Publishing, 2023. Available: <https://doi.org/10.1787/9953de23-en>.

[2] OECD, "Medium-term and Top-down Budgeting in OECD Countries," GOV/SBO(2023)10/REV1, Paris: OECD, 2023. Available: <https://one.oecd.org/document/GOV/SBO%282023%2910/REV1/en/pdf>.

[3] World Bank, *Finance and Prosperity 2024*, Washington, DC: World Bank, 2024. Available: <https://www.worldbank.org/en/publication/finance-and-prosperity-2024>.

[4] OECD, *G20/OECD Report on Assessing and Promoting Capital Flow Resilience in Emerging Markets and Developing Economies*, Paris: OECD, 2024. Available: <https://doi.org/10.1787/b261bbe7-en>.

[5] World Bank, *Uzbekistan Economic Update: Balancing Fiscal Sustainability and Inclusive Growth*, Washington, DC: World Bank, 2023. Available: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/economic-update>

[6] International Monetary Fund (IMF), *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation Report*, IMF Country Report No. 24/112, Washington, DC, 2024. Available: <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/05/Uzbekistan-Article-IV-Consultation>

